



NAVOIY IJODIDA MUSHTARAK SAN'ATLARNING IFODALANISHI

Sultonova Dildora Halim qizi

*Uzbekistan State World Languages University,
Independent research student,
Tashkent, Republic of Uzbekistan*

E-mail: dildorasultonova196@gmail.com

Tel: 91-986-21-51

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodida qo'llanilgan mushtarak san'atlar, ularning turlari va qo'llanilgan o'rnlari, shuningdek, mushtarak san'atlarda ijod qilgan ijodkor va shoirlar haqida bo'lib, ular qaysi badiiy san'atdan qaysi g'azalida foydalangan va ularning tahlillari qandayligi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari g'azallaridan namunalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, lavziy san'atlar, mutobaqa, muroat un-nazir, ta'dil, tansiq us-sifot, iqtibos, aqd, tazmin, baroati istehlol, husni taxallus, husni matla', husni maqta'.

ANNOTATION

This article is devoted specifically to the translation mechanisms of stylistic devices in the ghazals of Alisher Navoi. We have displayed by this article the translation mechanisms of classic literature including artistic art involve the study of the vocabulary of the ghazal, analysis of the ghazal, which a scholar of Alisher Navoi studies and a good knowledge of source and target languages.

Keywords: *ghazal, artistic art, stylistic devices, science of bade, verse, byte, verbal arts, spiritual arts, common arts.*

Mushtarak san'atlar ham lafzga, ham ma'noga tegishli bo'lgan san'atlar bo'lib, ular tarkibiga mutobaqa, muroat un-nazir, ta'dil, tansiq us-sifot, iqtibos, aqd, tazmin, baroati istehlol, husni taxallus, husni matla', husni maqta' va boshqa sheriylar san'atlarni kiritgan. Shuningdek bu guruhg'a tajnis san'atini ham kiritishimiz



mumkin. **Tajnis** (ar. - jinsdosh, hamjins) bayt tarkibida shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni qo‘llashga asoslangan she’riy san’atdir. Tajnisning bir necha turlari haqida ilmi badi’ga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs” asarida tajnisning 4 turi (tajnisi mutlaq, tajnisi murakkab, tajnisi zoid, tajnisi muraddad), Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Shams Qays Roziyuning “Al-Mo‘jam” va Shayx Ahmad Taroziyuning “Funun ul-balogs” asarlarida 7 turi (tajnisi torn, tajnisi noqis, tajnisi zoid, tajnisi mukarrar, tajnisi murakkab, tajnisi mutar-raf, tajnisi xat) keltirib o’tilgan¹. Navoiy ijodida ham tajnisning quyidagi bir necha turlarini uchratishimiz mumkin:

1) tajnisi tom yoki mutlaq tajnis – to‘liq shakldoshlikka (harflar tarkibi jihatidan) asoslangan:

**Sahnida yuz gul chiqorib bir yig‘och,
Har gulining atri borib bir yig‘och².**

Baytning bиринчи misrasida “yig‘och” so‘zi daraxt, yog‘och ma’nosida, ikkinchi misrasida masofa o‘lchovi (taxminan 8 kmdan ortiqroq) ma’nosida kelgan.

2) tajnisi muzori’ - shaklan yaqin so‘zlarning bir-biridan bir yoki ikki undosh tovush bilan farqlanishi natijasida vujudga keluvchi tajnis:

**Shoh olinda hamisha hozir o‘lsam,
Bu ish kayfiyatidin nozir o‘lsam³**

3) tajnisi xat - arab yozuvidagi so‘zlarning faqat nuqtalar orqali farqlanishiga asoslangan tajnis:

**Barcha xo‘blarning qad-u ruxsor-u xattu xoli bor,
Lek ulkim bizni behol aylar o‘zga holi bor⁴.**

Shunday badiiy san’atlardan yana biri **tazod** (ar. - zid qo‘yish, qarshilantirish) san’atdir. Bu san’at bayt tarkibida ma’no jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlardan foydalanishni anglatadi. Tazod san’ati ilmi bade’ga oid manbalarda turlicha atalgan. Masalan, Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs”, Toj al-Halaviyning “Daqoyiq ush-she’r”, Sharafiddin Romiyuning “Haqoyiq ul-hadoyiq” asarlarida mutazod, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Shayx Ahmad Taroziyuning “Funun ul-balogs”, Husayn Voiz Koshifiyuning “Badoyi’ ul-afkor” asarlarida al-mutazod, Shams Qays Roziyuning “Al-Mo‘jam”, Hamididdin Najotiyning “Risolai

¹ Sirojiddinov.Sh, Yusupova.D, Davlatov.O. Navoiyshunoslik. Toshkent: “Tamaddun”, 2018.

² A. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidan.

³ A. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidan.

⁴ A. Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar”, 176-g‘azal



feruziy” asarlarida mutobiqa, Shams Faxriy Isfahoniyning “Me’yori jamoliy” asarida esa al-ittizod istilohlari bilan keltirilgan⁵. Bu san’at haqida to‘liqroq ma’lumot Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” asarida keltirilgan bo‘lib, bu san’atni tiboq, tatbiq, tazod va takofu deb ham atalishini aytib o‘tgan. Shuningdek, shoir o‘z asarida ushbu atamalarning lug‘aviy ma’nosini hamda izohini berib o‘tgan. Bundan tashqari u bir misrada barcha so‘zlarning o‘zaro qarama-qarshi ma’noda kelganligi bilan bog‘liq misolni keltirib, uni Alisher Navoiydan eshitganligini aytib o‘tadi: “Hazrati xudovandgor (Alisher Navoiy)din eshittimkim, Xoja Salmon bir misra aytiptur, aning birinchi yarminda uch nimani zikr etiptur va ikkinchi yarminda ul uch nimaning muqobili bo‘lg‘an yana uch nimani zikr qiliptur va ul misrada o‘shul olti mutaqobil nimadin o‘zga hech lafz yo‘qtur. Aning ikkinchi misrain o‘shul tariqada aytmaptur. Ul misra budur:

Hushyor darun raftu berun omad mast⁶.

Ma’nosi: Hushyor ichkariga kirdi, mast tashqariga chiqdi. Baytning ushbu misrasida barcha so‘zlarning qarama-qarshi qo‘llanilganligini ya’ni uch juft zid ma’noli so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin: hushyor, mast; ichkari, tashqari; kirmoq, chiqmoq.

G‘azallarni ma’no jihatdan boyitadigan mushtarak san’atlardan yana biri **baroati istehlol** (ar. baroat - bir sohada ustunlik, istehlol - yangi oyni ko‘rish talabi) san’atidir. Asarning qaysi mavzuda ekanligini anglatuvchi badiiy san’at bo‘lib, bunda kitobxon asarning debochasi, bob yoki fasllar boshida kiritilgan so‘z va fikrlardan asarning mazmuni, mavzusi hamda mundarijasini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘pgina adabiyotlarda baroat - mahorat, fasohat, ravshanlik, fazilat, ustalik hamda fazl-u hunarda yetuklik sifatida talqin qilinsa, istehlol yangi oyni ko‘rish talabi ma’nosini anglatadi.

Alisher Navoiy g‘azaliyotida mushtarak san’atlardan tanosub yoki muroat un-nazir (baytda ma’no jihatdan bir-biriga yaqin va o‘zaro mutanosib so‘zlarni qo‘llashga asoslangan badiiy san’at), ishtiyoq (bir o‘zakdan hosil bo‘ladigan bir nechta so‘zni bir bayt yoki jumlada qo‘llashga asoslanadigan), siyoqat ul-a’dod yoki ta’dil (she’rda sodda otlarni muayyan tartib bilan ketma-ket keltirishga asoslangan) san’atlar ham mahorat bilan qo‘llanilgan bo‘lib, ular muallif g‘oyaviy niyatini ochib berishda muhim poetik unsurlar sifatida alohida ahamiyatga egadir.

⁵ <https://fayllar.org/5-mavzu-navoiy-ijodida-badiiy-sanatlar.html>

⁶ <https://fayllar.org/5-mavzu-navoiy-ijodida-badiiy-sanatlar.html>



Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. A. Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar”, “Hayrat ul-abror”, “farhod va Shirin” dostonlari.
2. Is’hoqov Y, “So‘z san’ati so‘zligi”. Toshkent “O‘zbekiston” 2014-y
3. Mardonova X. A. Navoiy g‘azallarida ma’naviy san’atlarning qo‘llanishi.— 2021. — № 11 (353). — S. 262-264.
4. Rustamov A., A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: “Adabiyot va san’at”, 1979-y. 69-bet
5. Sirojiddinov.Sh, Yusupova.D, Davlatov.O. Navoiyshunoslik.Toshkent: “Tamaddun”, 2018-y.